
Ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash davom etmoqda

"Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy muhofazaga muxtoj qatlami uchun bir martalik yordam pullari to'lab berildi va qaror bilan "Temir daftar"ga kiritilgan hamda bir martalik yordam pullarini olmagan ehtiyojmand oilalarning har bir a'zosi uchun 20 kilogrammdan bepul un tarqatilishi belgilangan.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida bugun Rishton tumanidagi mahallalarda "Temir daftar"ga kiritilgan hamda bir martalik yordam pullarini olmagan ehtiyojmand oilalarning har bir a'zosi uchun 20 kilogrammdan un tarqatish ishlari boshlandi. Tumanda "Temir daftar"ga kiritilgan hamda bir martalik yordam pullarini olmagan ehtiyojmand 551 ta oilaning 2193 nafar a'zosi uchun 43 ming kilogramm bepul un tarqatish rejalashtirilgan bo'lib, mahallalarda navbat bilan un mahsulotini o'z egalariga manzilli yetkazib berish ishlari davom ettirilmoqda va jarayonlar tuman hokimligi hamda sektorlar tomonidan nazoratga olingan.

2022-06-13 18:51:24